

Bosh murabbiylarning yillik hisobotlari qanday o'tmoqda?

Tahlil xolislik bilan asosli ravishda tanqidiy nazarga qurilsa, taklif, tavsiya va topshiriqlar ham har tomonlama ahamiyatli bo'ladi. Hisobotlardan ko'zlangan maqsad ham ana shudir. To'g'ri, bir yil mobaynida qilingan ishlarda qandaydir kamchiliklar bo'lishi mumkin, ba'zilari esa a'lo darajada bajarilgan bo'lishi mumkin. Buning sabablarini izlash, aytish, nuqsonlarni bartaraf etish, keskin ravishda chora-tadbirlar ko'rish ta'limdagi tizimlilik va tarbiyadagi tartibga xizmat qiladi. Shunday ekan, ana shu jarayonda mas'ullikni qo'lga olish zarur. TIQXMMI rektori prof. Umurzakov O'ktam Pardaevichning 2020 yil 15 iyundagi 26-sonli farmoyishiga binoan institutda murabbiylar kengashi faoliyati natijalarini o'rganish va hisobotlarini eshitish yuzasidan jadvalga muvofiq fakulitetlar murabbiylarining hisobotlari eshitilib muhokama qilinmoqda.



Bugun, ya'ni 18 iyun yuni soat 13.00da dastavval, "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulitetining murabbiyi Bahodir Hakimovning, so'ngra esa soat 15.00da esa "Gidromelioratsiya" fakulitetining murabbiyi Dilshod Nazaralievning hisobotlari tinglandi. Hisobotlar yig'ilishida fakulitet dekanlari boshchiligidagi barcha murabbiylar hamda fakulitetda ta'lim-tarbiyaga mas'ul mutasaddilar ishtirok etishdi. Hisobot yig'ilishi ZOOM platformasi orqali masofadan turib amalga oshirildi. Har ikkala hisobotda ham komissiya raisi sifatida institut yoshlar bo'yicha prorektori Ruzimurat Choriev ishtirok etib hisobotdan ko'zlangan maqsad va uning tartibi hamda tarkibi borasida o'z mulohazalarini bildirib o'tdi. So'ngrayoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi boshlig'i Zuhriddin Haydarov moderator sifatida 2019-2020 yillarda institutda ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy ishlarni tahlil qilish hamda murabbiylar kengashi faoliyati natijalarini sarhisob qilish bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirni boshqarib bordi.



Dastavval, B.Hakimov o'z hisobotida 2019-2020 o'quv yili mobaynida GIM fakuliteti misolida qilingan ishlar yuzasidan slaydlar asosida taqdimot dasturi bilan chiqish qildi. Talabalar, ota-onalar va pedagoglar orasidagi bog'liqlik, ularning o'zaro burchdorligi va daxldorligi qay yo'sinda bo'lgani, institut hayotidagi tadbirlarda fakulitet yoshlarining ishtiroki, san'at va sport sohasida erishilgan yutuqlar borasida so'z yuritdi.



Keyin esa hisobot yuzasidan savol va javoblarga o'tildi. Qizg'in bahs va munozaralar tarzida kechgan muhokama jarayonida bir yil mobaynida yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar ro'yi rost aytildi. Komissiya raisi va institut Bosh murabbiyi Zuhra Ismoilova hamda institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozovlarning keskin savollariga javob berishga biroz qiyalgani sezildi. Lekin tan olish kerakki, fakulitet miqyosida ancha ibratli ishlar qilingan, maqsad bundan-da yaxshi bo'lsin, muhimi, yanada yaxshi bo'lismiga imkon bo'ladiqan kafolatli kuch borligini e'tirof etishdir. Chunki bu fakulitetda nafaqat institut miqyosida, balki respublika darajasidagi mavqe va nufuzga ega bo'lgan professorlar Qiyomiddin Nazarov va Shohista O'ljaevalar borligini, ularning ilmiy-ijodiy imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini Komissiya raisi qayta-qayta uqtirdi. So'ngra fakulitet dekani Begmat Norovga so'z berildi. U yutuqlar bilan birga ba'zi bir nuqsonlar bo'lishi ham tabiiyligini e'tirof etib kelgusi yilda yangi kuch va g'ayrat bilan ish tutib, aytilgan kamchiliklarni butunlay bartaraf etishlarini ta'kidladi.



Soat 15.00da kun tartibidagi muhokama etilayotgan masala yakunlangan o'quv yilida "Gidromelioratsiya" fakulitetida yoshlar bilan ishslash, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlarning amalga oshirilganligi holati hamda mazkur yo'nalishda qilingan ishlar sarhisobi bo'ldi. Hisobotda fakulitet bosh murabbiyi Dilshod Nazaraliev tomonidan yoshlar bilan ishslash, ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar, guruh murabbiylarining yil davomidagi faoliyati, pandemiya sharoitida murabbiylarining talabalar bilan masofadan turib ishslashida erishilgan yutuqlari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida atroficha fikr

bildirdi.

Bu hisobot oldingisidan ham shiddatliroq tarzda kechdi. Bahsва munozaralar boshlandi. Dastavval, komissiya raisi R.Choriev tadbirlarning o'tkazilishi, turli musobaqalarda fakulitet yoshlaringning ishtirokidan ko'ngil to'lavermasligi bilan bog'liq holda bir nechta savollar berdi. Onqadar javoblar berilgach, institut bosh murabbiyi professor Zuhra Karabaevnaning ham keskin tarzdagi savollari fakulitet murabbiyini bir muncha dovdiratib qo'ygani ham rost. So'ngra ayrim e'tiroz va e'tiroflarga fakulitet dekani Alisher Fathullaev to'la-to'kis javob berishga intildi. Kamchiliklar ham yutuqlarimiz ham o'zimizniki, biz hammasidan to'g'ri xulosa chiqargan holda, ish tutsak jahon reytingida oldingi safda bo'lamiz va bayroqni qo'ldan bermaymiz deya o'z mulohazalarini bildirib o'tdi.



Hisobotlar eshitilgandan so'ng Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Chorievga xulosa o'rniда yakuniy so'z berildi. Komissiya raisi jumladan, shularni qayd etdi: biz qanchadan qancha katta tadbirlarni rejalaشتirgандик, afsuski, pandemiya pand bergani sabab ularni tashkil eta olmadik. Lekin yangi o'quv yilida yanada yangidan-yangi rejalarimiz, tadbirlarimiz bor. Biz ularni birgalikda amalga oshiramiz. Hisobot jarayonida sal qattiqroq gapirgan bo'lismiz mumkin. Bu hammasi institutimiz mavqeini, jahon miqyosidagi nufuzini saqlab qolish va yanada ulkan yutuq va rejalgarda ega bo'lismiz uchun kuchlarimizni birlashtirib g'alabalar sari safarbar qilishdir. Ochig'ini aytish kerak, ishlayapmiz, ishlayamayapmiz emas, lekin bor imkoniyat va qobiliyatimizni ishga solayapmizmi, afsuski yo'q. Xafa bo'lismi kerak emas, ba'zi murabbiylar, hatto pedagoglar nimalarnidir bahona qilib, eshiklarni bekitib skopus uchun maqola yozayapmiz deyishlari kulgili emasmikan. Izlagan ham, izlangan ham imkon topadi. Shunday murabbiylar, tarbiyachi - pedagoglar bor, bahona topishga ustasi farang. Hatto, murabbiylarning o'zini tarbiyalash kerak. Adashmasam, 142ta shtat birligi qisqarayapti. O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, ta'lim va tarbiya jarayoniga birdek qaraydigan, faol o'qituvchilar qoladi endi institutda. Masalaga jiddiy yondashing. Majburiyat burchi bilan mas'uliyat hissi amaliga ko'chgan jamoani har doim yutuq va zafarlar qarshilayveradi. "Gidromelioratsiya" fakuliteti institutimizda yetakchi fakulitet bo'lismi kerak. U barchaga o'rnak va ibrat bo'lismi zarur. U lokomativ fakulitet bo'lismi shart. Ba'zan shu savolni bera turib o'zim hijolat tortaman. To'g'ri, hisobotdagi ko'pgina ishlar e'tirofga sazovor, lekin e'tirozga moliklar ham yo'q emasligini bugungi ishtirokchilarning o'zları ham tan olishayapti, nazarimda. Ko'plar ChAT orqali yozishmalar qilishayapti bizning mulohazalarimizga, bahoimizga zid ravishda yozishmalar qilayotganlari ham bor. Mayli, ular bilan ham maslahatlashib maqsadlarimiz mushtarakligini tushuntirarmiz, balki ulardan jo'yali fikr, tavsiya va takliflar ham chiqar. Biz qabul qilamiz. Birovni yomon otliq qilish niyatimiz yo'q, hammangizni hurmat qilamiz, o'zimizga, faoliyatimizga jiddiyroq, tanqidiy nazar tashlab, o'z-o'zimizni taftish qilish vaqtini yetganini eslatmoqchimiz, xolos. Prezidentimiz ta'limga e'tibor qilib, pedagogning ijtimoiy nufuzini yuksaltirib, maoshlarini oshirib, ilm, ma'rifatni yuqori tutib turgan bir paytda biz e'tiborsiz va loqayd bo'lsak, bilmadim, bu bizga yarasharmikan? Rektorimiz yaxshi ishlagan, pedagogni, tarbiyachi, murabbiyining nomini menga bering, mukofot beraylik, rag'batlantiraylik deydilar doim. Kimni ibrat va o'rnak qilib ko'rsatamiz? Bir o'ylab ko'ringlar. Nazarimda, hamiyatingizga tegadigan gap qilmadim, sog'bo'linglar."



Institut bosh murabbiyi Z.Ismoilova, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Z.Haydarov, institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi A.Berdimurodov va boshqalar hisobotlar yuzasidan o'zlarining qimmatli taklif va tavsiyalarini bildirdilar. Har ikkala hisobot yakunida guruh murabbiylarining fikr va mulohazalari ham eshitildi, qayd etildi.



TIQXMMI matbuot xizmati